

Chet tilidan yozma ish 1-bo'lim topshiriqlarining xususiyatlari

	Topshiriqning xususiyatlari
Ko'nikma yo'nalishi	Elektron xat (email)ga javoban katta hajmdagi paragraf darajasida ikkita yozma javob xati yozish. Rasmiy va norasmiy uslublardan foydalanish talab etiladi.
Daraja	B1-B2
Izoh	Nomzod topshiriqdagi berilgan qisqa xat/e'lon shaklidagi ko'rsatmaga javob tariqasida ikki xil elektron xat yozadi. Birinchi xat — topshiriqdagi ma'lumotga tayangan holda, do'stiga yozilgan norasmiy elektron xat. Ikkinchi xat —topshiriqdagi ma'lumotga tayangan holda, notanish shaxsga (rahbariyat, mijozlar xizmati va hokazo) yozilgan rasmiy elektron xatdir.
nomzodlar (imtihon topshiruvchilar) uchun ko'rsatmalar	Ko'rsatmalar topshiriqning maqsadini aniq belgilab beradi. Bunda tashkilotdan yuborilgan (xizmat yoki ish jarayoniga oid) elektron xat taqdim etiladi. Berilgan xat topshiriq uchun aniq vaziyatini ochishda yordam beradi (masalan, onlayn kurs taklif qilayotgan maktab, kompaniya rahbariyati, klub yoki biznes boshqaruvi va hokazo). Bu elektron xatda biror muammo, masala, taklif yoki imkoniyat bayon etiladi va nomzoddan ushbu mavzuni ikki xil uslubda muhokama qilishi talab etiladi. Namuna: Siz sayohat klubining a'zosiz. Klubdan quyidagi xatni oldingiz: (qisqa elektron xat matni keltiriladi). Do'stingizga o'z his-tuyg'ularingiz va nima qilishni rejalashtirayotganingiz haqida xat yozing. Tavsiya etilgan so'z chegarasi 50 ta. Klub menejeriga o'z his-tuyg'ularingiz va nima qilishni xohlashingiz haqida xat yozing. Tavsiya etilgan so'z chegarasi 120-150 oralig'i.
Baholash mezonining taqdimoti	Yozma
Beriladigan vaqt	Yozma bo'lim uchun umumiy vaqt — 60 daqiqa . Alohida topshiriqlar uchun aniq vaqt chegarasi belgilanmagan, biroq 1-qism uchun taxminan 25 daqiqa tavsiya etiladi.
Javob shakli	Yaxlit matn
Janr	Biri norasmiy biri rasmiy bo'lgan ikki elektron xat (email)
Topshirish usuli	Rucha va qog'oz / kompyuter
Yozuvchi va o'quvchi orasidagi munosabat	Nomzod elektron xatlarni oldindan belgilangan kishilar nomiga yozadi. Birinchi xat nomzodga shaxsan tanish kishining nomiga yoziladi. Ikkinchi elektron xatning mo'ljallangan o'quvchisi esa aniq ko'rsatiladi, biroq u yozuvchi (nomzod) uchun shaxsan tanish bo'lishi ham, bo'lmasligi ham mumkin.
Matn turi	Tavsiflovchi matn Muhokama matn
Ko'lam (domen)	Ommaviy Kasbiy Ta'limiy
Topshiriqning mohiyati	Tahliliy bayon

Ko'zda tutilgan til funksiyalari	Fikr bildirish, Sabablar va asoslar keltirish, Umid va rejalarni tasvirlash, Aniq ma'lumot berish, Mavhum g'oyalarni ifodalash, Ishonch, ehtimollik, shubhani ifodalash, Umumlashtirish va aniqlik kiritish, Birlashtirish va baholash, Taxmin qilish va faraz bildirish, Fikrni ehtiyotkorlik bilan bildirish, Fikrning turli darajalarini ifodalash, Rozilik / norozilik bildirish, Reaksiya bildirish (masalan, befarqlik), Bahsni izchil rivojlantirish, Qisman rozi bo'lish (murosaga kelish), Muayyan fikr, hissiyot yoki masalaga urg'u berish, Fikrni ishonarli tarzda himoya qilish, Shikoyat qilish, taklif bildirish. (Manba: British Council EQUALS Core Inventory)
Features of the input/prompt	Topshiriq matnining xususiyatlari
Izoh	Boshlang'ich nuqta sifatida har ikkala elektron xat uchun tranzaksion (xizmat yoki ish jarayoniga oid) elektron xabar taqdim etiladi. Bu xabar rasmiy va shaxsiy bo'lmagan uslubda yozilgan bo'ladi. Xatda test topshiruvchilar javob berishi kerak bo'lgan 3 ta amal (harakat bandi) bo'lishi shart. Har bir elektron xat uchun 1–2 gapdan iborat alohida ko'rsatma beriladi. Ushbu ko'rsatmalarda xat kimga yozilishi (mo'ljallangan o'quvchi) va xatning maqsadi yoki funksiyasi (masalan, shikoyat bildirish, muqobil variant taklif qilish, maslahat berish va hokazo) aniq ko'rsatiladi.
Berilgan xat hajmi	50-80 so'z
Leksik daraja	K1-K3
Gramatik daraja	A1-B1 grammatik ifoda vositalari
Mazmuniy bilim	Umumiy
Madaniy xususiyat	Tarafsiz (neytral)
Olinadigan ma'lumotlarning shakli	Asosan aniq Qisman mavhum
Ko'lam (domen)	Ommaviy Kasbiy Ta'limiy
Olinadigan ma'lumot turi	Ma'lumot yuqorida tavsiflab o'tilgan murakkabroq va mavhumroq (abstrakt) til funksiyalarini yuzaga chiqarish (aniqlash) uchun mos va dolzarb bo'ladi.
	Kutilayotgan javobning xususiyatlari
Izoh	Ikki alohida elektron xat: biri norasmiy uslubda, biri esa rasmiy uslubda yoziladi.
Javoblarning uzunligi	Birinchi elektron xat uchun taxminan 50 ta so'z, ikkinchi elektron xat uchun esa 120–150 ta so'z yozish kerak.

Leksik/grammatik xususiyat	Norasmiy elektron xat uchun K1–K3 darajadagi soʻz boyligi yetarli hisoblanadi. Javobda B1 darajadagi grammatikani puxta qoʻllay olish, paragraf darajasida yozish va fikrlar orasida yetarli darajada bogʻlanish (cohesion)ni namoyish etish zarur. Ikkinchi (rasmiy) elektron xatni toʻliq va sifatli yozish uchun K4–K5 darajadagi soʻz boyligi kifoya qiladi. Javobda B2 darajadagi grammatika, bogʻlovchi vositalar (cohesion) va izchillik (coherence)ni taʼminlay olish koʻrsatib berilishi lozim.
Baholash mezonining taqdim	Topshiriq uchun ikki alohida, vazifaga xos holistik baholash shkalasi qoʻllaniladi. 1-xat (Email 1): Baholash 0 dan 5 gacha boʻlgan 6 pogʻonali shkala asosida amalga oshiriladi. 3–4 ball oraligʻini olish uchun B1 darajadagi natija talab qilinadi. 5 ball esa B1 darajasidan yuqori koʻrsatkich uchun beriladi. 2-xat (Email 2): Baholash ham 0 dan 5 gacha boʻlgan 6 pogʻonali shkala boʻyicha olib boriladi. 3–4 ball oraligʻini olish uchun B2 darajadagi natija talab qilinadi. 5 ball esa B2 darajasidan yuqori koʻrsatkich uchun beriladi.
Baholash vaqti	Test sinovidan soʻng
Baholovchi	Baholovchi (rater) test oʻtkazilayotgan paytda ishtirok etmaydi.

Chet tilidan yozma ish 2-bo'lim topshiriqlarining xususiyatlari

	Topshiriqning xususiyatlari
Ko'nikma yo'nalishi	Berilgan topshiriqqa javoban katta hajmdagi paragraf darajasida yozuvni talab qiladigan yozma topshiriq.
Daraja	C1
Izoh	Nomzod umumiy qiziqish uyg'otuvchi mavzu doirasida onlayn nashr uchun ijodiy tavsifiy matn tayyorlaydi (masalan, blog posti, muhokama forumi posti yoki jurnal maqolasi kabi).
nomzodlar (imtihon topshiruvchilar) uchun ko'rsatmalar	Ko'rsatmalar topshiriqqa xos tarzda beriladi. Namuna: Siz onlayn ishlashning ijobiy va salbiy jihatlari haqida blog posti yozmoqdasiz. O'z fikringizni bayon qiling va g'oyalaringizni misollar bilan asoslang. 180–200 so'z yozing.
Baholash mezonining taqdimoti	Yozma
Beriladigan vaqt	Yozma bo'lim uchun umumiy vaqt — 60 daqiqa. Alohida topshiriqlar uchun aniq vaqt chegarasi belgilanmagan, biroq 2-qism uchun taxminan 35 daqiqa tavsiya etiladi.
Javob shakli	Yaxlit matn
Janr	blog posti, muhokama forumi posti yoki jurnal maqolasi
Topshirish usuli	Rucha va qog'oz / kompyuter
Yozuvchi va o'quvchi orasidagi munosabat	O'quvchi (matn kimga mo'ljallangani) aniq ko'rsatilmagan.
Matn turi	Tavsiflovchi matn
	Muhokama matn
	Ommaviy
Ko'lam (domen)	Kasbiy
	Ta'limiy
Topshiriqning mohiyati	Tahliliy bayon

Ko'zda tutilgan til funksiyalari	Fikr bildirish, Sabablar va asoslar keltirish, Umid va rejalarni tasvirlash, Aniq ma'lumot berish, Mavhum g'oyalarni ifodalash, Ishonch, ehtimollik, shubhani ifodalash, Umumlashtirish va aniqlik kiritish, Birlashtirish va baholash, Taxmin qilish va faraz bildirish, Fikrni ehtiyotkorlik bilan bildirish, Fikrning turli darajalarini ifodalash, Rozilik / norozilik bildirish, Reaksiya bildirish (masalan, befarqlik), Bahsni izchil rivojlantirish, Qisman rozi bo'lish (murosaga kelish), Muayyan fikr, hissiyot yoki masalaga urg'u berish, Fikrni ishonarli tarzda himoya qilish, Shikoyat qilish, taklif bildirish. (Manba: British Council EQUALS Core Inventory)
Features of the input/prompt	Topshiriq matnining xususiyatlari
Izoh	Yozma topshiriqning konteksti va janrini aniqlash uchun ko'rsatma (prompt) beriladi. Ushbu ko'rsatma muhokama qilinadigan fikr yoki savolni o'z ichiga olishi shart.
Berilgan xat hajmi	30-50 so'z
Leksik daraja	K1-K5
Gramatik daraja	A1-B2 gramatik vositalar
Mazmuniy bilim	Umumiy
Madaniy xususiyat	Tarafsiz (neytral)
Olinadigan ma'lumotlarning shakli	Asosan aniq Qisman mavhum
Ko'lam (domen)	Ommaviy
	Kasbiy
	Ta'limiy
Olinadigan ma'lumot turi	Berilgan ma'lumot yuqorida tavsiflangan murakkabroq va mavhumroq til funksiyalarini aniqlash (yuzaga chiqarish) uchun mos va dolzarb bo'ladi.
	Kutilayotgan javobning xususiyatlari
Izoh	Onlayn nashr uchun mo'ljallangan ijodiy-tavsifiy matn.
Javoblarning uzunligi	180-200 so'z oralig'ida
Leksik/grammatik xususiyat	Javobda C1 darajadagi grammatikani puxta egallaganlik, shuningdek, o'zaro bog'liqlik (cohesion) va izchillik (coherence)ni ta'minlay olish namoyish etilishi lozim.
Baholash mezonining taqdim	Topshiriq uchun vazifaga xos holistik baholash shkalasi qo'llaniladi. Baholash 0 dan 6 gacha bo'lgan 7 pog'onali shkala asosida amalga oshiriladi. 5-ball darajasiga erishish uchun C1 darajadagi matn yozish talab etiladi, 6 ball esa C1 darajasidan yuqori ko'rsatkich uchun beriladi.
Baholash vaqti	Test sinovidan so'ng
Baholovchi	Baholovchi (rater) test o'tkazilayotgan paytda ishtirok etmaydi.

Expert bahosi	Standard ball
16	75
15,5	72
15	69
14,5	67
14	65
13,5	64
13	63
12,5	62
12	61
11,5	59
11	57
10,5	55
10	53
9,5	51
9	50
8,5	48
8	47
7,5	45
7	43
6,5	41
6	40
5,5	38
5	37
4,5	35
4	33
3,5	31
3	28
2,5	25
2	21
1,5	17
1	14
0,5	10
0	0